

qog'ozlarga investitsiyalar hajmini oshirish, portfellarni diversifikatsiya qilish va depozit sertifikatlarini rivojlantirish kabi takliflar banklarning likvidligini oshirish, risklarni kamaytirish va real sektorni moliyalashtirishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Qonunchilik bazasini zamonaviy talablarga moslashtirish, emitentlarning faoliyatini qat'iy nazorat qilish hamda investorlarning huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish moliya bozorining barqarorligini mustahkamlashda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Xalqaro tajribadan foydalangan holda bank tizimini modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rag'batlantirish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish orqali tijorat banklarining samaradorligini oshirish mumkin. Shunday qilib, moliya bozorining barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarining roli faqatgina operatsion faoliyat bilan chegaralanmaydi, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan strategik yechimlarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.04.2003 yildagi 196-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-6992-son
3. https://www.uzse.uz/system/analytics/pdfs/000/000/231/original/2024_yil_I_chorak_bo'yicha_Birjaviy_tahlil.pdf?1721109912

FOND BOZORIDA INSTITUTIONAL INVESTORLARNING JORIY HOLATI TAHLILI

Jiyanov Uktam Panjiyevich

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
katta o'qituvchisi*

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ichida fond bozorining ko'lamini kengaytirish, investitsiyalarni samarali jalb etish va likvidligini oshirish asosiy maqsadlardan biri bo'lib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'tgan yillar mobaynida O'zbekistonda kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan bir necha qonun va farmonlar qabul qilindi. Ulardan biri, "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-sonli farmonidir.

Ushbu farmonga binoan, quyidagi muhim vazifalar belgilab berilgan:


– ilg'or xalqaro amaliyotni joriy qilish, ortiqcha to'siqlar, cheklovlar va sohaning haddan tashqari tartibga solinganligini bartaraf etish orqali fond bozorida rivojlanish maqsadlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni faol moliyalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

– xalqaro moliya bozorlari bilan faol integratsiyalashuv va xorijda muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan ilg'or yondashuvlardan foydalanish orqali barcha toifadagi investorlar uchun kapital bozorining qulayligini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-sonli farmonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan 100 ta maqsad belgilab berilgan. Shundan 27-maqsad: iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazishga bag'ishlangan bo'lib hozirgi kunda ushbu vazifa yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

"Toshkent" Respublika fond birjasi O'zbekiston Respublikasi hududidagi yagona fond birjasi bo'lib, u 1994-yil 8-aprelda tashkil etilgan. Ushbu birja qimmatli qog'ozlar savdosi amalga oshiriladigan va qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan oldi-sotdi savdolari amalga oshiriladigan o'ziga xos tashkillashtirilgan bozor hisoblanadi.

2024-yilning o'tgan yarim yilligi bo'yicha "Toshkent" RFB birja kotirovka varaqasiga 103 ta emitentning 157 ta qimmatli qog'ozlari kiritilgan bo'lib, shundan 99 tasi aksiyalar emitentlari, 2 tasi obligatsiya va aksiya emitentlari bo'lsa, 4 tasi faqat obligatsiya emitentlari hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 2024-yilning birinchi yarim yillik holatiga ko'ra birjada amalga oshirilgan bitimlar soni 246 286 tani tashkil etgan va bu 2023-yilning mos davriga (134 773) nisbatan deyarli 2 baravar o'sishni bildiradi.



1-rasm. O'zbekistonda fond bozorining o'zgarish dinamikasi

Yuqoridagi grafikka e'tibor beradigan bo'lsak, 2023-yilda savdo hajmi bo'yicha birjada deyarli ikki baravar tushish kuzatilgan lekin umuman olganda 2022-yilni hisobga olmaganda birjada o'sish kuzatilgan. Bu davrda bitimlar soni 410,23 foizga oshgan. Sektor bo'yicha eng ko'p banklarga to'g'ri kelgan bo'lsa, hudud nuqtai nazardan Toshkent shahri yetakchilikni egallab kelmoqda. Ushbu hududdagi emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan barcha 291 746 ta


bitimning umumiy summasi 2,02 trln. so'm bo'lib, birja savdolari umumiy hajmining 74,57 foizini tashkil etgan.

1-jadval

Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha 2023-yildagi bitimlar

Tarmoqlar	Bitimlar soni, dona	Bitimlar hajmi, so'm
Agrosanoat	18 521	597 738 164 823,87
Banklar	229 898	971 972 481 065,11
Lizing	639	13 900 260 607,15
Sanoat	36 798	108 448 536 911,81
Aloqa	20 816	37 007 935 894,14
Sug'urta	31 819	77 230 034 987,01
Qurilish	20 085	17 763 405 011,83
Transport	2 579	66 541 307 723,10
Energetika	22 697	119 454 704 388,32
Boshqalar	28 018	702 691 105 893,96
JAMI	411 870	2 712 747 937 306,90

Birja operatsiyalari umumiy hajmining 35,83 foizi bank sektori qimmatli qog'ozlari hissasiga to'g'ri kelgan. Bu shuni anglatadiki, fond bozorini rivojlantirishda energetika, transport, qurilish, agrosanoat kabi sektorlarning ham roli muhim hisoblanadi. 2023-yil davomida jami 411393 dona birjaviy bitimlar tuzilgan bo'lib, hajmi 2620,57 mlrd. so'mni tashkil etgan. Joriy yilda savdoda ishtirok etgan emitentlar 101 tani tashkil etgan.



2-rasm. Bitimlar hajmi bo'yicha Top 10 aksiyalar, mlrd. so'm

Bitimlarning eng katta hajmida kuchli uchtalikni sug'urta kompaniyalari egallagan. Jumladan, "Ingo-Uzbekistan" AJning oddiy aksiyalariga to'g'ri kelib, bitim hajmi 46,77 mlrd. so'mni qayd etgan. Undan keyingi o'rinlarda "Humo

sug'urta" AJ va "My-insurance" AJning aksiyalari egallab, ularning oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bitimlar hajmi mos ravishda 15,77 mlrd. va 10,91 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2023-yil davomida "Toshkent" Respublika fond birjasida 3 ta emitentning qimmatli qog'ozlarini birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO) muvaffaqiyatli o'tkazilgan. Shulardan biri "UzAuto Motors" AJ aksiyalarining birlamchi ommaviy taklifi bo'lib o'tgan. Muomaladagi aksiyalarning 80,1 foizi institutsional investorlarga, qolgan 19,9 foizi esa chakana investorlarga taqsimlangan. Yana bir IPO o'tkazgan tashkilot "O'zbektelekom" hisoblanadi. Muomaladagi aksiyalarning 60 foizi korporativ va institutsional investorlarga, qolgan 40 foizi esa chakana investorlarga berilgan. So'nggi IPO o'tkazgan tashkilot "O'zbekinvest" AJ bo'lib, aksiyalarning 70,27 foizi institutsional investorlarga, qolgan 29,73 foizi chakana investorlarga taqsimlangan.

Shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda fond bozorining joriy holati o'tgan yillarga nisbatan sezilarli o'sganligini bu esa ushbu bozorga so'nggi yillarda berilayotgan e'tiborning natijasidir. Lekin shunga qaramay haligacha davlat ulushi ko'proq bo'lgan korxona va tashkilotlarda qimmatli qog'ozlarning bahosi va o'sish su'ratlari nisbatan past ko'rsatkichda qolmoqda. Buning yechimi sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat aralashuvini kamaytirish maqbul yo'l bo'lishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekistonda ko'proq ommaga tanilgan kompaniyalari, jumladan, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalarining ochiq holatda o'z IPO larini o'tkazishi ham keng jamoatchilikning qiziqishi ortishiga va aksiyadorlar safining kengayishiga sabab bo'ladi deya olamiz.

O'zbekistonda fond bozorining rivojlanishiga aholining ko'pchilik qismi musulmon ekanligi va shunga asosan qimmatli qog'ozlarning yangi turini joriy etishning ayni vaqti ekanligi ham ta'sir qilishi mumkin. Buni bir misol sifatida, O'zbekistonda tijorat banklarida aholining depozitga mablag' qo'yishda qanchalik sustkashlikka yo'l qo'yayotganligi ya'ni bu ularning diniy qarashlariga to'g'ri kelmasligidan deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jasurbek Ataniyazov and Sayfullokhon Narimonov "Stock Market in Uzbekistan: Current Situation and Development Prospects" (2022)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>,

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.04.2021 yildagi PF-6207 son, <https://lex.uz/docs/5371091>

4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 28-yanvardagi 07-45-01/03-sonli buyrug'i

5. "Toshkent" RFB, Birjaviy tahlil, I yarim yillik uchun, 2024 <http://www.uzse.uz/>

6. https://enc.for.uz/wiki/Toshkent_fond_birjasi